

## Bilasizmi? VII-VIII asrlarga tegishli Qanotli ma'buda haykali bo'lakchalari

Qanotli ma'buda haykali bo'lakchalari.



U VII-VIII asrlarga tegishli bo'lib, Buxorodan 40 km. g'arbda Qizilqum sahrosida Varaxsha shahri xarobalaridan topilgan. VI-VIII asrlarda bu yerda Buxoro vohasi hukmdorlari istiqomat qilgan. Bu yerda 1938–1953 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari qazish ishlari olib borganlar. Qazish chog'ida hukmdorlarning muhtasham saroyi topilgan. Varaxsha haykallari orasida odam va hayvondan iborat afsonaviy maxluqlar tasvirlari qiziqish uyg'otadi. Odam-qush qadimgi san'atda keng tarqalgan timsollardan biri: yunonlarda u sirena va gargiya, so'nggi O'rta Osiyo san'atida — xumo. Odam-qushning boshi qisman, asosan soch gajaklari to'la saqlangan. Gavdasining yuqori qismi yupqa, libos bilan to'silgan. Haykalning qush qismi yirik bo'rtma patlar bilan qoplangan, bir yelkasini uzun qanot yopib turibdi.

Hozirda ushbu topilma O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondida saqlanadi.